

**Jo'rayeva Nargiza Rafiq qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

---

**"TUHFAT UL-OBIDIN VA ANIS UL-O SHIQIN" BAYOZI TARKIBIDA  
KELTIRILGAN MUQIMIY VA HAZINIY IJODIGA MUXTASAR TAVSIF**

**Annotatsiya:** Matn bu qimmatli tarixiy asos va qo'limizdagi bayoz o'zining hali hech kim tomonidan ishlanmaganligi va unda berilgan Haziniy va Muqimiyligi ijodi namunalari o'zidan oldin amalga oshirilgan tabdil namunalari bilan butunlay o'xshamasligi bilan ajralib turadi. Bayoz tarkibida keltirilgan Haziniy ijodi namunalari esa uning hozirda bizda mavjud Devonini qayta ko'rib chiqish va qayta nashr qilish uchun yetarlicha sabab topib bera oladi deya olamiz.

**Kalit so'zlar:** Bayoz, Muqimiyligi, Haziniy, litografiya, toshbosma, muxammas, murabba, g'azal, Sharif Yusupov, G'ulom Karimov.

**Аннотация.** Текст представляет собой ценную историческую основу, а баяз, находящийся в наших руках, отличается тем, что над ним еще никто не работал, а приведенные в нем примеры творчества Хазини и Мукими совершенно отличны от примеров осуществленных преобразований. перед этим. Можно сказать, что примеры творчества Хазини, включенные в «Байоз», являются достаточным основанием для того, чтобы пересмотреть и переиздать его «Девон», который у нас имеется в настоящее время.

**Ключевые слова:** Байоз, Мукими, Хазини, литография, литография, мухамас, мурабба, газель, Шариф Юсупов, Гулам Каримов.

**Annotation.** The text is a valuable historical basis, and the bayaz in our hands is distinguished by the fact that it has not been worked on by anyone yet, and the examples of Khazini's and Muqimi's work given in it are completely different from the examples of transformations carried out before it. We can say that the examples of Khazini's work included in Bayoz are enough reasons to revise and republish his Devon, which we currently have.

**Key words:** Bayoz, Muqimi, Hazini, lithography, lithography, mukhamas, murabba, ghazal, Sharif Yusupov, Ghulam Karimov.

---

O'zbek adabiyoti tarixida eng dolzarb va murakkabliklarga to'la bo'lган davr bu XIX asr oxiri va XX asr boshlari hisoblanadi. Shunga qaramay ushbu vaqt mobaynida, boshqa davrlarda bo'lgani kabi, o'z davrining yetuk va qalami o'tkir shoirlar, xususan, Muqimiyligi, Huvaydo, Shavqiy, Haziniy ijodi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu davrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy o'zgarishlar o'zbek adabiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi va o'zbek adabiyotiga yangi rux, yangi mavzular kirib keldi, va aynan shu davrda yig'ilgan to'plamlar, bayozlar tarkibida, nafaqat yuqorida sanab o'tgan shoirlarimiz ijodiga oid she'rlar, balki yana ko'pchiligidan hali tanish bo'lib ulgurmagan shoirlar Hoji Sobir, Vasliy, Shahdiy, Obid Namangoniy ham o'z o'rnnini topgan.ushbu kichik maqolada biz aynan ana shu bayoz tarkibida salmoqli o'rin egallagan Haziniy ijodi namunalari va uning 1999-yilda filologiya fanlari doktori, professor Sharif Yusupov maxsus muharrirligi ostida Ahmadjon Madaminov va Otabek Jo'raboyevlar tomonidan nashrga tayyorlangan "Devon" tarkibini butunlay yangilash ehtiyojini beradigan rad etib bo'lmaydigan misollar bilan murojaat qilmoqchimiz.

Ushbu davrda chop etilgan toshbosma bayozlar qatorida qo'limizdagi bayoz hali o'rganilmagan va u , bizga ma'lum bo'lishicha , “ Tuhfat ul-obidin va anis ul-oshiqin” deb nomlangan va u hijriy 1326-yil, milodiy 1908-yilda Toshkentda Mulla Hasan Orifjonov litografiyasida chop etilgan. Bayoz tarkibida 71-betda Muqimiy ijodiga oid bir gina she'r kiritilgan. Ushbu she'r qish faslida o'sha davrning odamlarining joniga ora kirgan sandal ya'ni tancha haqidagi she'r bo'lib u quyidagicha berilgan:

Qish-u sovuqlarda ajab oromi jonim sandali  
Xohishi tab'I hama piru javondur sandali.  
Ko'chadin kelsang, oluv qo'yniga titrab-qaltirab,  
Ota-u mushfiq anodin mehribondur sandali.  
Qor-u bo'ron kelsa lashkar tortibon el qasdida,  
Pahlavon o'chog'imiz sohibqirondur sandali.  
O't solib yotgan kishig'a avval oxshom to sahar,  
Lahat go'yo oq badani tanti juvondur sandali...

Muqimiy ijodiga mansub ushbu sandali radifli she'r aynan qo'limizdagi bayozda to'liq holicha yetib kelmagan bizga, afsuski ushbu toshbosmaning 72 va 73-betlari bizgacha yetib kelmagan. Bilishimizcha avvalgi tabdillarida uchramaydi, masalan G'ulom Karimov tahriri ostida nashrga chiqqan Muqimiyning 1960-yilda chiqqan “ Tanlangan asarlar” va “Bog' aro” yoki 1974-yilda chiqqan “Asarlar” to'plamida aynan ushbu she'ri uchramaydi. Qolaversa, G'afur G'ulom tahriri ostida chiqqan 1953-yildagi “Asarlar” to'plamida ham “Bog' aro” to'plamida ham bu she'r uchramaydi garchi ushbu she'r uning bir nechta shunday o'xhash mavzularda , chunonchi , “Loy”, “Aroba”, “Ot”, “Aravang”, “Aravang” va ho kazolar yozilgan she'rlariga juda yaqin bo'lsa ham. Lekin Muqimiyning mustaqillik yillarida chop etilgan yangi “Saylanma” sida ushbu she'r berilgan , ammo aynan Muqimiyning ushbu she'ridagi oxirgi bayt

O't solib yotgan kishig'a avval oxshom to sahar,

Lahat go'yo oq badani tanti juvondur sandali...ushbu kitobda uchramaydi. Afsuski qo'limizdagi qo'lyozmadagi ikki betning bizgacha yetib kelmagani bizga qolgan baytlar ( balki yana yangilari bo'lishi mumkin) yetib kelmaganaligini bildiradi. Albatta, solishtirganda ancha farqlar uchraydi, masalan “Saylanma” dagi ilk misrada “oromi jondur” bo'lib kelgan bo'lsa bunda “oromi jonim” kabi holatlar. Ushbu Bayozda Muqimiyning faqatgina ana shu she'ri berilgan va toshbosmadagi boshqa ijodkorlarning she'rlariga to'xtaladigan bo'lsak, kitobning katta qismi Haziniy ijodi namunalari bilan to'ldirilgan. Uning quyidagi ijod namunalari berilgan va birma bir uning filologiya fanlari doktori, professor Sharif Yusupov muharrirligi ostida nashrga tayyorlangan 1999-yildagi “Devoni”da keltirilgan namunalarini solishtirib keltirib o'tamiz. Bayozning 46-betida quyidagi murabba berilgan;

Mustafog'a ( devonda Mustafoga shaklida kelgan) dunyo vafo qilmadi,

Zikriyoga dunyo vafo qilmadi,

Anbiyoga dunyo vafo qilmadi,

Avliyoga dunyo vafo qilmadi.

Abu Bakru Umar, Usmon, Alini,

Zuhra birla ( Devonda “ilan” shaklida kelgan, boshqa manbalarda “birlan”bo’lib kelgan) Hasan, Husayn Valiyni,

Oldi ajal barcha mursal-nabini, (Devonda “nabiyni” )

Murtazoga dunyo vafo qilmadi.

Qayon ketti o‘ttuz uch ming sahoba?!

Kim, yuttilar hasrat birla xunoba, ( Devonda “ Ketti alar hasrat, dili xunoba)

Dunyo erur bir raboti ( Devonda ko’hnayi) xaroba,

Rahnomaga dunyo vafo qilmadi.

G’avsul A’zam avliyolar rahbari,

Ul Muhammad ummatini sarvari, (Devonda Alhamdulillah kabi berilgan, albatta bu xato variant bo’lsa kerak, chunki boshqa manbalarda bu “Ul Muhammad ummatini g’amxo’ri” kabi holatlar ham uchraydi).

Masihoga jon bag‘ishlar guftori,

Devonda “ Masihodek jonbaxsh erdi kabi berilgan. Keying misra biroz g’alati berilgan.

Matkag’a ( Boshqa manbalarda Muttaqog’a deyilgan bo’lsa Devonda Muttakoga deyilgan) dunyo vafo qilmadi. Mana shu yerga kelganda Bayozda to’liq to’rt qator misra tushirib qoldrilgan. Bu yerda Devonda keltirilishicha quyidagi misralar berilgan:

Majnun o’tti, kuyib ishqilayloda

Farhod-Shirin, Vomiq ko’ngli Uzroda,

Muhabbati San’on qizi Tarsoda,

Jonfidoga dunyo vafo qilmadi.

Tohirni ko‘r, Zuhroga dil bog‘ladi,

Ishq o‘tig‘a yurak-bag‘rin dog‘ladi,

Tig‘ ustida o‘lmoqlig‘in chog‘ladi,

(Devonda Tiyg’ ostida o‘lmoqliqni chog‘ladi)

Ul shahloga ( Devonda “ Bevfoga” ) dunyo vafo qilmadi.

Ul Mavlaviy Jomiy bilan(Devonda dedi ) Hamdamim,

Mirzo Husayn der erdilar mahramim,

Bahrom aytur, dilu jon-Gulandomim,

Haziniyga dunyo vafo qilmadi.

Maqta Xaziniy devonidagi variantiga butunlay o’xshamaydi. Devonda maqta quyidagcha berilgan:

Haziniyman , Ibrohimdur suyganim,

Purxatoga dunyo vafo qilmadi.

Keyingi she’ri “ yig’lar” radifli g’azali bo’lib devonda 29-betda berilgan, bayozda 47-betda keltirilgan.

Sano aytib Xudog’a andalib suyi chaman yig’lar,

Qayerda joyi maxfiy bo’lsa, ul aylab vatan yig’lar

Judo bo’lsa kishikim Yusufidin piri Kan’ondek

Firoq o’tig’a o’rtab, sokini baytul-hazan yig’lar.

Ushbu g’zalni solishtirib unda unchalik katta farqlar ko’rmadik va keying she’r tahlillariga o’tishga qaror qildik. Keyingi namuna muxammas bo’lib, u “ Voy, xor o’ldi shariat , dinimiz bo’ldi g‘arib “ deya boshlanadi

Voy, xor o’ldi shariat, dinimiz bo’ldi g‘arib,

Bu nechuk turfa alomat, dinimiz bo’ldi g‘arib,

Ye yaqindurmu qiyomat? Dinimiz bo’ldi g‘arib,

Ko‘p rivoj oldi sharorat, dinimiz bo’ldi g‘arib,

Barchadin ketti adolat, dinimiz bo’ldi g‘arib.

Tavba denglar, ey birodarlar, turub shomu sabo,

Aylashib zoru tazarru’lar, tilang haqdin pano,

Doimo toat-ibodatda bo‘lub, aylang duo,

Shoyad etsa rahm rabbim podshoh, bizlar gado,

Jurm etib, qilmay nadomat, dinimiz bo’ldi g‘arib.

Xonaqoda zikri haq mone', sharorat oshkor,

Barcha kaslar hama rohatda, nedin , xoja xor,

Devonda "Barcha nokaslar hukumatda sayyiddur, xoja- xor" shaklida berilgan

Kimda dunyo bo'lsa, holo xalq ichra e'tibor,

Olimu shayxi zamon xilvatda yig'lar zor-zor,

Jorii bo'lmasdin shariat, dinimiz bo'ldi g'arib.

Yaxshilarga sabr qilmakdin bo'lak yo'qtur iloj,

Bu na mushkuldur, musulmonlar berur dushmang'a boj( Devonda mushrikka )

Turmayin Farg'ona ichra emdi, Baytulloga qoch,

Qilmayin bir dam nadomat, dinimiz bo'ldi g'arib.

Devonda ayni shu misra quyidagicha berilgan. Balki toshbosma o'yilayotgan vaqtida bu so'z ko'chirayotgan inson tomonidan o'zgartirilgandir.

Jurm etib, qilmay nadomat, dinimiz bo'ldi g'arib,

Har qayonda bo'lsa, donolarni dillari ( devonda holo bag'ri shaklida berilgan) qon,

Bu falak raftori kaj dastidin aylarlar fig'on,

Qo'l yaqoda, tavba deb aylang .yana piru javon, Devonda "pir-u juvon"

Bexabar turma, Haziniy, anqarib oxir zamon,

Vodarig'o, bu na hikmat, dinimiz bo'ldi g'arib.

Haziniyning keying ijodi namunasi yana bir muxammas bo'lib, ushbu she'r bayozda 50-betda berilgan, devonda esa 135-betda berilgan muxammalaridan biridir, ammo boshqa manbalarda va bayozlarda toshbosmalarda uni uchratish mumkin. Ushbu muxammas bayozda

Fikr birla aylagil shafqat o'lumdin ilgari, deya boshlangan, ammo devonda " Pirga qil, ey odamiy, bay'at o'limdin ilgari" deya boshlanadi.

Dargohiga aylagil xizmat o'lumdin ilgari, Keyingi ikki misra devonda almash tirib berilgan va bayozda jurm etgoningga deyilgan bo'lsa, devonda "jurm-u isyoningga" deyiladi

Jurm etgoningga qil hasrat o'lumdin ilgari,

Ro'zu shab tangriga qil toat o'lumdin ilgari,

Manzilingni aylagil jannat o'lumdin ilgari.

Jon amonatdur jasad ichra,(devonda negadir “bil” degan so’z qo’shilgan) g‘animat — zindalik,

Tangriga purgirya bo‘lgil, bo‘limgil ko‘p xandalik, (shu qator devonda “ Tangrining farmoni – girya” deb berilgan)

Ro‘zi mahsharda shaqovat xalq aro sharmandalik,( devonda: O’yla , mahsharda mashaqqat, deyiladi)

Haq taologa qilinglar zindalikda bandalik, (devonda berilmagan)

Yelga dining bermagil — g‘aflat, o‘lumdin ilgari. (devonda “ Diydaga yo’l bermagin, g‘aflat o’limdin ilgari”

Ey birodar, har kishi vaqt sahar bedordur,

Haq taolo, bil, o‘shandog‘ bandasiga yordur,

Toatini mizdig‘a jannat bilan diyordur,

Haq taoloni rizosi sanga ko‘p darkordur,

Haq sani bandam desa, davlat, o‘lumdin ilgari. Devonda uchinchi va to’rtinchi beshlik qatorlar o’rni almashtirib berilgan, shuningdek “ toatini so’zi “ toatimiz” kabi

Bu o‘lum haq barchamizga, o‘ylagil, ey oshno,

Bil, nazar qilg‘il, qayon ketti, (devonda o’rni almashgan”qayon ketti, nazar qil” kabi) tamomi anbiyo,

Bir nafas qo‘ymas jahon ichra, agar yetsa qazo.

Hasrato birla ketarsan, mulku ashyo bevafo,

Ol go‘ristonga borib ibrat o‘lumdin ilgari.

Pirga qo‘l ber boriyoza, ketmaynn ostonadin,( devonda chek riyozat)

Pir misoli sham’i ravshan, ( devonda sha’mdur, sen ibrat ol) ibrat ol parvonadin,

Yodi haq birla bo‘lub, saqla tiling afsonadin,

Ket, Haziniy, ravzayi Ahmadga san Farg‘onadin,

Dam g‘animat, aylagil hijrat o‘lumdin ilgari.

Xulosa o‘rnida yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek Bayoz mundarijasida berilgan shoirlardan biri bo‘lmish Haziniy ijodiga oid namunalar nihoyatda xilma-xil va janr xususiyatlari va mazmuni ham turlichadir, ammo biz bulardan bir nechtaginasinigina tahlil qilib o’tdik, ammo keltirib o’tilgan farqlar juda katta va bizning hozirda mavjud Haziniy Devoni qayta ko’rib chiqilishga va mukammalroq ko’rinishga muxtoj ekanligini yaqqol ko’rsatib bera oladi deb o’ylaymiz.

Nargiza Jo'rayeva Rafiq qizi

**Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bayoz Buxoro qo'lyozmalari fondi, INV 12443/II(25)
2. Haziniy. Asarlar// so'zboshi, lug'at-izohlar mualliflari: A.Madaminov, O.Jo'rboev, maxsus muharrir, so'ngso'z muallifi: Sh. Yusupov, -T.: "Ma'naviyat", 1999.-176b
3. Muqimiy, Bog' aro: she'rlar/ Muqimiy; nashrga tayyorlovchi, lug'at va izohlar muallifi A.Turdialihev; Farg'ona viloyat hokimligi ma'naviyat-ma'rifat kengashi. -T.: Akademnashr, 2010,-312b
4. Muqimiy, Asarlar-T.:1974-yil
5. www.ziyouz.com